



## SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA TANQIDIY TAFAKKURNING O'RNI VA ZARURATI

**Qayimova Sevara Dilshod qizi**

*O'zDJTU Xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XXI asrda barcha sohalardagi zamonaviylashuv va sun'iy intellektlarning o'rni, mohiyati, ularning inson tafakkuri va hayotiga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbliji shundaki, bugungi globallashuv davrida salbiy o'zgarishlarning oldini olish, inson hayotida tanqidiy tafakkurni rivojlantirish, sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirish hisoblanadi.

**Kalit zo'zlar:** sun'iy intellekt, sun'iy ong, texnologiyalar, internet asri, "chatgpt", tafakkur, tandqidiy fikrlash, axborot texnologiyalari, ishsizlik, globallashuv.

**Абстрактный.** В данной статье анализируется роль и сущность модернизации и искусственного интеллекта во всех сферах в XXI веке, их влияние на мышление и жизнь человека. Актуальность исследования заключается в том, что в сегодняшнюю эпоху глобализации необходимо предупреждать негативные изменения, развивать критическое мышление в жизни человека, формировать здоровую социальную среду.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, искусственное сознание, технологии, век интернета, "chatgpt", мышление, критическое мышление, информационные технологии, безработица, глобализация.

**Abstract.** This article analyzes the role and essence of modernization and artificial intelligence in all areas in the 21st century, their impact on human thinking and life. The relevance of the study is that in today's era of globalization, it is necessary to prevent negative changes, develop critical thinking in human life, and form a healthy social environment.

**Keywords:** artificial intelligence, artificial consciousness, technology, internet age, "chatgpt", thinking, critical thinking, information technology, unemployment, globalization.

### KIRISH

XXI asr o'zining jadalligi, tezkorligi, zamon talabiga moslashuvchanligi bilan ajralib turadi. O'tkan asrlar bilan taqqoslaydigan bo'lsak, ijtimoiy hayot, shahar hududlarining kengayishi, madaniyat, tibbiyot, fan va ta'lim, axborot texnologiyalari kabi bir qancha sohalarda sezilarli rivojlanishlar bo'ldi. Jumladan, jamiyatda odamlarning dunyo-qarashi yaxshilandi, og'ir mehnatdan zamonaviy texnikalashtirilgan ishlarga o'tildi, shahar hududlari va ma'muriy binolar qayta ta'mirlandi, ko'kalamzorlashtirildi, zamonaviy texnikalar bilan ta'minlandi, dam olish joylari, oromgohlar, aholi uchun zarur punktlari.



yaratildi, bozor iqtisodiyotiga ham alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek, madaniyat, san'at, tibbiyot sohalarida malakali kadrlar yetishtirildi va sog'liqni saqlash bo'limi zarur texnikalar bilan ta'minlandi. Ta'lim sohasiga keladigan bo'lsak, maktabgacha va maktab ta'limi, Oliy ta'lim sohasida anchagina yuksalishlar bo'lmoqda. O'quv binolari uchun zarur texnika va anjomlar yetkazildi, darsliklar yangilanib, o'quvchi-yoshlar uchun mos dasturlar belgilandi. Demak, asosli tarzda ayta olamizki, bugun barcha sohalarda zamonaviy texnika-texnologiyalar mavjud, xizmat ko'rsatishlar elektronlashtirilgan, barcha yo'nalishlar tizimi sistemada ishlamoqda. Bu nafaqat jarayonlarni osonlashtirish, balki, yetakchi davlatlar qatoriga chiqishda rivojlanish uchun ham muhim qadamlardan biri hisobalanadi.

Biroq, bu davr o'zining zamonaviyligi bilan birga salbiy holatlarni ham olib kelmoqda. Raqamli davr, sun'iy intellekt, global tarmoqlanish – tafakkurning qisman sustlashuvi va turmush tarzida ijtimoiy munosabatlarning tubdan o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Sun'iy intellektlar va ommalashgan "chatgpt" platformasining foydalanuvchilari tobora ko'payib bormoqda. Insonlar har qanday mavzu va sohalarda foydalanishlari va ijtimoiy hayot masalalarida ham "maslahat" olishlari mumkin.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Ingliz matematigi Alan Turing ilk bor sun'iy intellekt sohasida tadqiqotlar olib borgan. 1956-yilning yozida Dartmouth universitetida sun'iy tafakkur masalalari bo'yicha anjuman bo'lib o'tadi va unda amerikalik informatika fani olimi John McCarthy birinchi marta "Artificial Intelligence" – sun'iy intellekt atamasini ishlatgan. 2020-yillar boshlarida mazkur soha gurkirab rivojlandi va hozirda bu borada sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Shuning uchun bu kabi texnologiyalar qimmatli biznes resursi hisoblanadi. Biz bilgan robotlar, "Siri"ning sun'iy intellektga integratsiya qilingan varianti, "Gemini" "Chatgpt", Amazon, Google tizimidagi tarjima programmalarini sun'iy intellekt uchun misollar deb ayta olamiz.

Avvallari "sun'iy intellekt" atamasi faqat odamlar bajarishi mumkin bo'lgan ishlar, masalan, mijozlarga online xizmat ko'rsatish, shaxmat o'ynash, ma'lumot izlashda qo'llanilgan.

Bugungi kunda sun'iy intellekt texnologiyalari ikki yo'nalishda rivojlanmoqda:

1. Semiotik – nutq, fikrlash va his-tuyg'u kabi yuqori darajadagi ruhiy jarayonlarni bildiruvchi yangi tizimlar ishlanmalari va bilim asoslarini taqdim etadi.
2. Biologik – bu yondashuv biologik jarayonlar nuqtai nazaridan aqli xatti-harakatlar modellarini yaratuvchi neyron tarmoqlar sohasida tadqiqotlar o'tkazishni ko'zda tutadi.

Biznes sohasini rivojlantirishda, yangi innovatsion g'oyalari, hamda, investitsiyalar kiritishda bevosita sun'iy intellektga murojaat qilinadi. U sof daromad manbayini, tarmoqlarni rivojlantirish usullarini aniqlashda, g'oya yoki fikrni shakllantirib, yangi ixtiolar qilishga yordam beradi. Bozor sharoitidan kelib chiqib muammolarni bartaraf etish uchun taxminiy yechimlar beradi. Masalan, yirik hajmdagi ma'lumotlarni qisqa fursatda tahlil qiladi, bu esa tibbiyotda kasalliklarni erta aniqlashda, moliyaviy boz orlarda xavf va imkoniyatlarni oldindan baholashda yoki ishlab chiqarish jarayonlarida resurslardan oqilona.



foydalanshda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, avtonom transport vositalari (Tesla), aqli uy tizimlari, tarjimon dasturlar, chat botlar va shunga o‘xshash innovatsiyalar odamlarning kundalik hayotini ancha qulaylashtiradi. Bu texnologiyalar ko‘rish yoki eshitish qobiliyati cheklangan insonlar uchun ham foydali bo‘lib, ular jamiyatda faolroq ishtirot etishlari uchun imkon yaratadi.

Ta’lim sohasida ham foydaluvchilar uchun qulay, tezkor imkoniyatlarni taqdim etadi. Masalan, rasm yoki shablonlar yaratishda, biror fikr yoki g’oyani shakllantirishda, resurlarni izlashda, tarjima qilishda, xullas, ilm-fanga doir barcha topshiriqlarni bajaradi. Har bir o‘quvchining o‘zlashtirish darajasi va uslubini aniqlab, unga moslashtirilgan o‘quv materiallari tayyorlash mumkin. Uning eng katta afzalligi cheklanmaganligi va kunning har qanday qismida, ya’ni 24 soat davomida uzlusiz ishalaydi. Ammo, u taqdim etayotgan ma’lumotlar va raqamli faktlarning barchasi ham to‘g’ri bo‘lavermaydi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

Tanganing ikkinchi tomoni bo‘lgani kabi, sun’iy entellektlarning tobora kuchayib borishi natijasida inson tur mush tarzida ham o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda. Butunjahon iqtisodiy forumi mutaxassislari ma’lumotiga ko‘ra, sohalar dagi tizimni avtomatlashtirish natijasida millionlab odamlar ishsiz qolgan. Xususan, axborot xizmati faoliyatları, jismoniy mehnat bilan bog’liq ba’zi kasblar, ishlab chiqarish va qisman xizmat ko‘rsatish sohalarini qamrab olgan. Bundan tashqari, ishsizlik kelib chiqadi, axborot xavfsizligi doirasida ma’lumotlar himoyalanmay qoladi va natijada shaxsiy ma’lumotlar tarqaladi. Bu bevosita inson hayotiga ham tahdid soladi, axborotlar sox talashadi va ishonchlilik darajasi kamayadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari noto‘g’ri qo‘llanilgan taqdirda katta xavf tug’diradi. Masalan, yuzni tanish texnologiyalari orqali shaxsiy hayot daxlsizligi buzilishi mumkin. Yoki sun’iy intellekt noto‘g’ri qarorlar qabul qilsa, bu inson huquqlarining buzilishiga olib keladi. Shu sababli, “suniy ong” uchun aniq axloqiy va huquqiy me’yorlar zarur. Insoniyat uchun esa tanqidiy tafakkurni rivojlantirish kerak.

Ba’zi manbalarda uning yana bir xavfli tomoni haqida aytib o‘tishgan. Gap shundaki, kuchli sun’iy intellektga ega davlatlar yoki korporatsiyalar dunyo bo‘yicha katta ustunlikka erishib, ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkin. Texnologiyaga ega bo‘limgan yoki undan chetda qolgan jamiyatlar raqobatda ortda qolishi, bu esa global muvozanatni buzishi ehtimolini kuchaytiradi.

Afsuski, sun’iy intellektga bog’liq xavf-xatarlar orasida noto‘g’ri ma’lumotlar asosida o‘rgatilgan tizimlar ham bor. Ya’ni, u noto‘g’ri, foydaluvchi yolg’on ma’lumotlar asosida o‘rganadigan bo‘lsa, u noto‘g’ri qarorlar chiqaradi. Bu esa diskriminatsiya, adolatsizlik va hatto huquqiy xatoliklarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun tizimlarining shaffofligi, adolatliligi va ishonchliligi har doim ta’milnishi zarur.

Kundalik hayotda eng ko‘p foydalilanligan “Chatgpt” platformasini oladigan bo‘lsak, ko‘p hollarda faktlar eski yoki ishonchsiz, o‘z nazariyalariga tayangan holda taqdim etadi. Unga bog’lanib qolish natijasida xotira sustlashadi, jamiyatda tanqidiy fikrlay olmaydi, hattoki, qaror ham qabul qila olmaydi. Talabalar hayotidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak,





intihon vaqtlarida ular savollarga javob topishda qiynalishsa, afsuski, tafakkurlarini emas “chatgpt”dan yordam olishni tanlashadi. Bu sun’iy texnologiyalar juda tez va mukammal rivojlanganki, insoniyat qiyin vaziyatga tushganda miyaga “chatgpt” degan “signal” boradi. Bunda talabaning ilmiy saviyasi, ijodiy fikrlashini emas, sun’iy intellektning bilimi baholanadi.

Sun’iy texnologiyalar inson ong-tafakkuri bilan birga ijodiy qobilyatlarini ham cheklaydi. Kreativ yondashuvga nisbatan xatti-harakatlari insonlarning o‘z g’oyalarini taqdim etish, atrof-muhitda bo‘ladigan voqealarga fikr bildirish, turli vaziyatlarga baho berish, muammoga duch kelganda unga yechim topish, chuqur mulohaza yuritish kabilardan uzoqlashtiradi. Shuning uchun, uning jamiyat hayotidagi salbiy ta’sirini kamaytirish zarur. Bu borada muallif tomonidan quyidagi tavsiyalar berib o‘tiladi:

- Izlanish vaqtida undan fikr oling va shu bo‘yicha o‘z tafakkuringizdan foydalaning. U bergen ma’lumotlarni ko‘chirmang.
- Manbaa yoki fakt so‘raganiningizda uni albatta tekshiring. Chunki, ma’lumotlar yangilanmagan yoki asossiz bo‘lishi, norasmiy saytlardan olingan bo‘lishi mumkin.
- Har qanday sun’iy intellekt taqdim etgan ma’lumotlarga tanqidiy yondashing. Javoblar asosan nimaga yondashilganligi, isbot va dalillar qay darajadaligi tekshiring
- Sohangizga oid qo‘llanmalar bilan ko‘proq tanishib chiqing, bu bora qanday ilmiy izlanishlar bilan tanishing.
- Qandaydir muammoli vaziyatlarga duch kelganingizda o‘z tafakkuringiz ya’ni shaxsiy fikringiz bilan yechishga harakat qiling. Avvalo, uni qanday kelib chiqqanini aniqlang, shunda natijaga tezroq erishasiz
- Eng yaxshi tavsiya – ko‘roq kitob o‘qing. Bu sizning fikrlash doirangizni kengaytiradi, atrof-muhitda bo‘layotgan jarayonlarda o‘z qarashlaringizni ifoda etishga yordam beradi.

## XULOSA

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, sun’iy intellekt insonlarning fikrlash tafakkuriga juda katta salbiy ta’sir qiladi. Ya’ni unga bog’lanib qolish orqali oddiy savollarga ham javob topa olmay qolishadi. Axiyri, erinchoqlik, dangasalik, savodsizlik, atrof-muhitda ijtimoiy muloqotning kamayib ketish kabi salbiylikka duch kelishadi. Global taraqqiyot davrida texnik-tehnologik rivojlanish bilan bir qatorda, ong va tafakkurimizni ham rivojlantirib borishimiz lozim. Elektron uskunalar yumushimizni yengillashtiradi, bu bizda dangasalik holatini keltirib chiqarishiga emas, aksincha, yangi ishlar qilish imkoniyatiga sharoit yaratish lozim. Sun’iy intellekt axborot xavfsizligini ta’minlashda yangi imkoniyatlar yaratadi, lekin shu bilan birga yangi tahdidlarga ham olib keladi. Yadro qurolidan ham xavfli bo‘lib borayotgan bu “sun’iy ong”dan to‘g’ri foydalanish kelgusida inson hayotining muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyasi bugungi zamonaviy jamiyat uchun katta imkoniyatlar bilan birga muhim xavflarni ham olib kelmoqda. Uning ijobiy tomonlari mehnat unumdarligini oshirish, inson hayotini yengillashtirish va zamonaviy muammolarga





ilg'or yechimlar taklif qilish bo'lsa, salbiy jihatlari ijtimoiy tengsizlik, ish o'rinxarining qisqarishi, shaxsiy hayotga tahdid va nazoratning kuchayishi kabi holatlardir. Shuning uchun sun'iy intellektdan foydalanishda ehtiyotkorlik, axloqiy yondashuv va qat'iy boshqaruv zarur. Har qanday texnologiyalardan foydalanishdan oldin, avvalo, inson o'z tafakkurini ishlatishi, duch kelgan vaziyat yoki muammoga tanqidiy tomonlaman yondashib, uni o'rganib hal etishi zarur. "Sun'iy ong" dan yordamchi sifatida foydalanish, g'oyalarni kengaytirish, yangilik olish yo'lida ishlatish maqsadga muvofiqdir. Shundagina biz bu texnologiyani insoniyat manfaatiga yo'naltirib, uni barqaror rivojlanish vositasiga aylantira olamiz.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Usmonov Sherzod Axmadjonovich. Sun'iy intellektning tafakkur jarayonlariga psixologik ta'siri. "Psixologiya va amaliy psixologiyada dolzarb muammo va yechimlar" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi.
2. "Sun'iy tafakkur: qudratli texnologiyalar va donishmandlik poygasi" xabar.uz sayti <https://xabar.uz/uz/tahlil/suniy-tafakkur-qudratli-texnologiyalar>
3. "Sun'iy intellektning ijobiy va salbiy tomonlari". <https://fanresurs.uz/> sayti.

